

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI RIVOJLANTIRISH MARKAZLARIDA FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA STEAM TA'LIM MUHITINI YARATISH

**Abdumajitova S.A**

*Termiz davlat pedagogika instituti —Maktabgacha ta'lim fakulteti,  
—Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi  
sayyohat@terdupi.uz*

**Annotatsiya:** *STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'lim sohasiga olib kirish, nafaqat maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar va shu sohada tahsil olayotgan oliy ta'lim muassasalari talabalariga tanlov fan sifatida o'qitish ishlari yo'lga qo'yilgan. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalangan holda ta'lim olishlari ta'limga bo'lgan qarashlarini o'zgartirmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari, pedagoglari, tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) ta'limning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, STEAM texnologiyasidan foydalanishlari mumkin. Jahon ta'lim tajribasida STEAM – texnologiyasidan foydalanish jarayoni va holati tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *STEAM, ijodkorlik, trening, kognitiv, o'yin usuli, o'qitish texnologiyasi, faoliyat, rivojlantiruvchi muhit, STEAM pedagoglari, ijodiy fikrlash, estetik zavq, intellektual qobiliyat.*

Bugungi kunda STEAM texnologiyasi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanib, tabiatshunoslikni texnologiyalar, muhandislik va matematika bilan birlashtirmoqda. Hayotda bo'lgani kabi, barcha obyektlar bir butunga birlashtirilgan va o'zaro bog'langan - va bu juda uyg'un butunlikni tushunishda kuch bor.

O'z ishida Shatunova O.V. dunyoning rivojlangan 7 mamlakatida STEAM ta'limi bo'yicha ishlash tajribasini o'rganib chiqib, u ilmiy-texnik ijodkorlikni rivojlantirish, shu jumladan maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik bilimlarini rivojlantirish uchun mamlakatimizda pedagogik innovatsion ta'lim faoliyatini tashkil qilishda integral yondashuvning ijobiy namunasi sifatida STEAM ta'limini rivojlantirish zarurligi haqida yozgan.

O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilinib borilayotgan uzluksiz ta'lim tizimida bugungi kunda rivojlangan Yevropa davlatlari ta'lim tizimi tajribasidan na'muna olish orqali dunyo ta'limi bilan yuzlasha olishm, tajriba almashish, raqobatga kirishish, uzluksiz aloqada bo'lish ishlari sezilarli darajada rivojlanmoqda. Jumladan dual ta'lim, enkuliziv ta'lim, eksternat ta'lim, masofaviy ta'lim va STEAM ta'lim shakllari fikrimizga yaqqol misol bo'loladi. Mazkur ta'lim shakllaridan bugungi kunda keng foydalanilib yuqori natijalarga erishilmoqda.

STEAM ta'lim texnologiyasi ilk bor Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi ta'lim bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi.

(Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu tushunchalarga Art qo'shildi va endi STEAM butunligicha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi, deb hisoblashdi.

STEAM yondashuviga oid darslik va o'quv qo'llanmalari Cambridge University Press shu jumladan Oxford University Press va Collins kabi nufuzli nashriyotlar tomonidan chop etilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim.

Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Ushbu vazifalarni amlga oshirish maqsadida qo'yidagilar nazarda tutiladi:

1) maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishini va uning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

2) maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tanlab olishni va ekspertizasini ishlab chiqilgan tartibga muvofiq o'tkazish;

3) maktabgacha ta'limning muqobil shakllari uchun yangi o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

4) «Ilk qadam» davlat o'quv dasturini keng joriy etish;

5) bolalarning yakka tartibdagi ish daftarlari, kartochkalar, tarqatma va sanoq materiallari mazmuni va dizaynini o'rnatilgan talablarga muvofiq ishlab chiqish;

6) rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalar ta'limining kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish, inklyuziv ta'lim, eng yangi reabilitatsiya va abilitatsiya usullarini keng joriy etish, ularning izchil ijtimoiylashuvi va umumiy maktabgacha ta'lim umumiy tizimi integratsiyalashuviga ko'maklashadigan moslashtirilgan dasturlar va yakka tartibdagi ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish;

7) maktabgacha ta'limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang'ich ta'lim izchilligining mazmun va protsessual kompetentlarini optimallashtirish;

8) mashg'ulotlar davomiyligining eng maqbul vaqtini va ularning ketma-ketligini aniqlash maqsadida o'quv rejaları va ta'lim dasturlarini optimallashtirish;

9) bolalarni sog'lom turmush tarzini yuritishga o'rgatish, gimnastika va faol o'yinlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish orqali bolalarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va sportga qiziqish uyg'otishni shakllantirish, jismonan sog'lom o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash;

10) maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lim darajasini oshirish, erda yoshdan boshlab STEAM o'qitish asoslarini joriy etish;

11) bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini rivojlantirish;

12) maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnamaydigan bolalar uchun ta'lim xizmatlari turlari: pullik ta'lim xizmatlari, qisqa muddatli guruhlar va boshqalarni kengaytirish.

STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalaridagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish etarli emas.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEM texnologiyasi ta'limiy loyiha va eksperimental tadqiqot ishlarini tashkil etish orqali amalga oshiriladi. STEM texnologiyasi orqali tarbiyachi rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Shu bilan birga, tarbiyachilar turli faoliyat turlari, o'yinlar uchun qo'llanmalar va jihozlar, mustaqil faoliyat uchun materiallarni tayyorlash jarayonlarini o'rganadilar. STEAM texnologiyasi orqali tarbiyachilar turli materiallardan elementar yordamida (yog'och, qog'oz, metal, plastik) boshlang'ich texnik ko'nikma va malakalarini egallaydilar, muhandislik tamoyillari bilan tanishadilar. Turli konstruktorlar orqali tarbiyachilar bolalarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. REQUIREMENTS FOR TEACHERS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS.

GU Kholboyeva, L Umurova - "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE", 2023

2. Abdumajitova S. A. ADVANTAGES OF USING MONOTYPE METHODS IN ORGANIZING CHILDREN'S VISUAL ACTIVITY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS //Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 40-47.

3. Abdumajitova S. A. et al. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR TASVIRIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA MONOTIP USULLARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI //Analysis of world scientific views International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 98-107.

4. Abdumajitova S. A. CREATING A STEAM LEARNING ENVIRONMENT FOR COMPREHENSIVE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN //Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 16-23.

5. Abdukasimovna A. S. The First Step is to Provide Education to Children in Preschool Education Based on STEAM Educational Technology In the State Program //Journal of Creativity in Art and Design. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 21-24.

6. Abdukasimovna A. S. Using STEAM Educational Technology to Create an Active Developing Environment in Preschool Educational Organizations //Journal of Creativity in Art and Design. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 14-18.

7. Абдумажитова С. А. ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ДИЗАЙН STEAM //Экономика и социум. – 2024. – №. 2-2 (117). – С. 367-370.

8. Abdukasimovna, A. S. (2023). THE NEED TO USE STEAM EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATION. Scientific Impulse, 1(9), 1736-1741.

9. Абдумажитова, С. А. (2023). МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДОШКОЛЬНИКОВ. Scientific Impulse, 1(9), 1071- 1076.

10. Abdukasimovna, A. S. (2023). PEDAGOGICAL CONDITIONS OF EDUCATIONAL ACTIVITY IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(29), 25-30.

10. Абдумажитова, С. (2023). STEAM-ТЕХНОЛОГИЯ КАК ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДОШКОЛЬНОЙ INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE” Ankara, Turkey 2023

11. Abdumajitova S. A. PRIORITY OF THE PERSON-CENTERED EDUCATIONAL MODEL IN PRESCHOOL EDUCATION //International Academic Research Journal Impact Factor 7.4. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 53-57.